Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320262

йўлларини статистик методлар асосида ишлаб чиқиш. Монография. – Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2018 – 206 б.

8. Маматқулов Б.Х . Фермер хўжаликларининг иқтисодий қўллаб-қувватлаш механизмлари самарадорлигини статистик баҳолаш усулларини такомиллаштириш.DSc дар. олиш учун ёзил.дисс.-Т.; ТДИУ,2023.-185б.

9. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси расмий сайти маълумотлари [Lex.uz]. .

BARQAROR RIVOJLANISH VA ESG EKOTIZIMINING INSTITUTSIONAL BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY STATISTIKA TIZIMINING ROLI

Abdulazizov Shuhratjon Botirjon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi, PhD
e-mail: abdulazizovshuhrat4@gmail.com

Bugungi kunda global iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi barqaror rivojlanish tamoyillarini (BRM) amaliyotga keng joriy etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kundan kunga kamayib borayotganligi, ijtimoiy tengsizlik kuchayishi, korporativ boshqaruvdagi muammolar kabi omillar davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarni yangi rivojlanish modelini shakllanishiga turtki bo'ldi. Shu nuqtai nazardan ham, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda ESG tamoyillari hozirgi kun iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

ESG ekotizimi iqtisodiy faoliyat natijalarini nafaqat moliyaviy samaradorlik nuqtai nazaridan, balki ekologik, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv sifatini hisobga olgan holda baholash imkoniyatini yaratadi. Ushbu tamoyillar davlat organlari, moliyaviy institutlar hamda biznes subyektlari uchun qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga o'tish, uglerod emissiyalarini kamaytirish, inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mas'uliyatli investitsiyalarni rivojlantirishda ESG indikatorlari strategik vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda ESG ekotizimi konsepsiyalari o'zaro uzviy bog'langan. Masalan, karbon chiqindilarini qisqartirish maqsadi, korporativ ekologik ko'rsatkichlarga, gender tenglik maqsadi esa ESG ning ijtimoiy tamoyiliga to'g'ri keladi. Birlashgan Milllatlar Tashkilotining 2030-yilgacha maqsalari doirasida ishlab chiqilgan BRM ko'rstkichlarini to'plash va tahlil qilishda milliy statistika tizimi markaziy rol o'ynaydi201. Barqaror rivojlanish maqsadlari– BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan 17 ta global maqsad majmuasi bo'lib, "2030-yilgacha kambag'allikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va barcha

201 https://unstats.un.org

Published: 05.06.2026

Cite this article: Abdulazizov Shuhratjon Botirjon o'g'li (2026). Barqaror rivojlanish va ESG ekotizimining institutsional barqarorligini ta'minlashda milliy statistika tizimining roli. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320262

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

odamlarga tinch va farovon hayotni ta’minlash” kabi universal yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. BRM maqsadlari asosan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o‘lchovlarni muvozanatlashga e’tibor qaratadi. Ularga erishish uchun turli indikatorlar belgilanib, ularning rivojlanish dinamikasi muntazam ravishda monitoring qilinishi lozim.

ESG ekotizimi – korxona darajasida barqarorlikni baholash uchun ishlab chiqilgan uchta asosiy tamoyil to‘plami hisoblanadi. ESG tamoyillari korporativ faoliyatning atrof-muhitga ta’siridan tortib, xodimlar huquqlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarigacha bo‘lgan sohalarni qamrab oladi. Masalan, ESG standartlariga ko‘ra xodimlar maoshi, chiqindilarning qayta ishlanishi, karbon chiqindilari va korrupsiya qarshi kurash kabi o’lchovlar bilan baholanadi.


Barqaror rivojlanish maqsadlari va ESG integratsiyasi ikki darajada qarash mumkin milliy darajadagi siyosat va korporativ darajadagi monitoring. ESG tamoyillarini BRM strategiyalariga qo‘shish orqali barqaror rivojlanish yo‘lidagi sa’y-harakatlarga yangi iqtisodiy rag‘bat kiritish mumkin.202 Masalan, kompaniya faoliyatini ko‘rsatuvchi ESG hisobotlari orqali erishilgan natijalarni milliy statistika bilan bog‘lash mumkin.

Milliy statistika organlari BRM va ESG monitoringida hukumat va jamoatchilik uchun ishonchli axborot ta’minoti nuqtai nazaridan markaziy vazifalarni bajaradi. Ularning tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslari milliy qonunchilik me’yorlari hamda BMT tomonidan belgilangan rasmiy statistikaning 10 ta fundamental tamoyiliga muvofiq shakllantiriladi. Masalan, mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4796-son qarorga muvofiq milliy statistika tizimi kompleks rivojlantirilishi, axborot almashinuvi va ma’lumotlar sifati yaxshilanishi nazarda tutilgan203. Statistika idoralari mustaqil boshqaruv va aniq vakolatlar bilan faoliyat yuritib, o‘zaro muvofiqlashtirish orqali davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi.

STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

202 https://indepthresearch.org/

203 https://lex.uz/ru/docs/-4926736



1-rasm. ESG ekotizimi ishtirokchilari va ularning o‘zaro aloqalari sxemasi[204]

Barqaror rivojlanish maqsadlari monitoringini samarali tashkil etishda Milliy statistika tizimi ma’lumot manbalarini o‘zaro muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada muhim institutsional qadamlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2019-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va monitoring qilish bo‘yicha idoralararo ishchi guruh tashkil etilib, BMTning global indikatorlari milliy ustuvor yo‘nalishlar hamda mamlakat sharoitlariga moslashtirildi. Mazkur jarayon natijasida dastlab 206 ta milliy indikator ro‘yxati shakllantirilgan bo‘lsa, keyinchalik u optimallashtirilib 190 taga yetkazildi. Shundan 155 tasi BMTning global indikatorlari bilan uyg‘unlashtirilgan hisoblanadi.205

Statistika tizimi barqaror rivojlanish maqsadlari va ESG ko‘rsatkichlarini monitoring qilish jarayonida axborotlarning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va sifatini ta’minlovchi asosiy institutsional infratuzilma hisoblanadi. Ushbu tizim doirasida statistik ma’lumotlarni shakllantirishda yagona metodologik yondashuvlar, klassifikatorlar va standartlashtirilgan hisoblash mexanizmlarining qo‘llanilishi ko‘rsatkichlarning vaqt va makon kesimida o‘zaro taqqoslashni

204 https://widgets.weforum.org/esgecosystemmap

205 https://unstats.un.org

ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ham, statistik ma’lumotlarning metodologik yaxlitligi barqaror rivojlanish siyosatini samarali baholashning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanish indikatorlari monitoringini axborot jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida maxsus raqamli platformalar joriy etilgan. Ushbu yondashuv statistik ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash, foydalanuvchilar uchun shaffof axborot muhitini yaratish hamda xalqaro monitoring mexanizmlariga integratsiyalashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Statistik metodologiyalarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha izchil hamkorlik mexanizmlari shakllanmoqda. Xususan, BMT agentliklari hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda suv resurslari, ekologik barqarorlik, iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liq indikatorlarni baholash metodologiyalari ishlab chiqilmoqda. Bu esa milliy statistika tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, mahalliy mutaxassislarning salohiyatini oshirish hamda ESG va BRM monitoringining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, milliy statistika tizimini rivojlantirish strategiyasi doirasida statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish jarayonlarini raqamlashtirish, ma’lumotlar sifatini oshirish hamda idoralararo axborot almashinuvini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda milliy BRM indikatorlari qamrovi sezilarli darajada kengaymoqda, mavjud statistik baza barqaror rivojlanish monitoringining institutsional imkoniyatlarini yaxshilamoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlari va ESG ekotizimining institutsional barqarorligini ta’minlashda milliy statistika tizimi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mazkur tizim ishonchli statistik ma’lumotlarni shakllantirish, indikatorlarni monitoring qilish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

Mamlakatimizda statistik tizimni modernizatsiyalash, raqamli platformalarni rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashishtirish muhim natijalar keltirmoqda. Shuningdek, statistik ma’lumotlarning qamrovini kengaytirish, ularni hududiy va ijtimoiy-demografik kesimlarda chuqurlashtirish hamda BRM va ESG indikatorlarini korporativ hisobot tizimlari bilan uyg‘unlashtirish istiqboldagi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalnilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://unstats.un.org - United Nations Statistics Division (UNStats) Official Website – Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistika bo‘yicha rasmiy platformasi.

2. https://indepthresearch.org - In-Depth Research Institute Official Website – iqtisodiy, ijtimoiy va statistik tadqiqotlar bo‘yicha analitik materiallar va tadqiqot platformasi.

3. https://lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. https://widgets.weforum.org - World Economic Forum ESG Ecosystem Map – ESG (Environmental, Social, Governance) ekotizimi, institutlar, standartlar va manfaatdor tomonlar xaritasi bo‘yicha interaktiv platforma.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti